

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



60230100 - Filologiya va tillarni o‘qitish (xitoy tili)
(kechki ta’lim)
ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilari uchun mutaxassislik fanlaridan

YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI
DASTURI

Toshkent- 2025

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 13 dekabrda "Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 836-son qarori I-ilovasi bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi NIZOMga asosan ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

N.N.Eshpo'latov – Xitoyshunoslik oliy maktabi stajor o'qituvchisi

Taqrizchilar:

S.A.Nasirova – DSc, prof. TDSHU huzuridagi Konfutsiy instituti direktori

A.A.Karimov – f.f.n., Xitoyshunoslik oliy maktabi professori.

Dastur Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025-yil
"29" 11 -sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

KIRISH

Mazkur dastur 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (sharq tillari bo'yicha) yo'nalishi bitiruvchilarining to'rt yarim yil mobaynida ixtisoslik fanlarini o'qib o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun o'tkaziladigan Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari bo'yicha ishlab chiqilgan.

2025/2026 o'quv yilida bitiruvchilarda Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari joriy o'quv yili ishchi rejalariga muvofiq umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan o'tkaziladi.

Umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan Yakuniy davlat attestatsiyasi quyidagi tur topshiriqlarni o'z ichiga oladi:

- I. Mutaxassislik fanlaridan sinov – 25 ball;
- II. Tili o'rganilgan mamlakat adabiyotiga oid masalalar – 25 ball;
- III. Sharq tilidan ona tiliga tarjima – 25 ball ;
- IV. Ona tilidan sharq tiliga tarjima – 25 ball.

I. MUTAXASSISLIK FANLARI

A) Mutaxassislik fanlaridan attestatsiya yozma sinovlari “Asosiy sharq tili”, “Asosiy sharq tili nazariyasi”, “Asosiy sharq tili leksikologiyasi”, “Sharq tillarini o'qitish metodikasi”, “Asosiy sharq tili filologiyasiga kirish”, “Asosiy sharq tili yozuv tizimi” fanlaridan savollarni qamrab olgan. Ushbu qism bo'yicha quyidagi savollar tavsiya qilinadi:

1. Xitoy tilini geneologik va tipologik tasnifdagi o'rni.
2. Xitoy tilida morfema, so'z va so'z birikmasini ajratish muammasi.
3. Hozirgi xitoy tilida monosillabizm va polisillabizm.
4. Hozirgi xitoy tilining tipologik xususiyatlari.
5. Xitoy tili grammatik kategoriyalarining nazariy masalalari va tipologik yondashuv.
6. Xitoy tilida so'z turkumlar muammasi va ismiy so'z turkumlar tushunchasi.
7. Xitoy tili kishilik olmoshlarining semantik xususiyatlari.
8. Xitoy tilida gaplarning tuzilishi
9. Xitoy tilida juft inkor.
10. Xitoyda nazariy grammatikaning shakllanish bosqichlari.
11. Xitoy tilida frazeologizmlarning o'rni va mohiyati, ularning grammatik strukturasi.
12. Xitoy tilida omonimiya masalasi.
13. Xitoy tilida sinonimiya masalasi.
14. Xitoy tilida turg'un konstruksiyalarning o'rni va ahamiyati.
15. Xitoy tilida so'z turkumlari.
16. “是……的” konstruksiyali gaplar.

17. Xitoy tili nazariy grammatikasining sinxroniyasi.
18. Xitoy tilining leksik –semantik xususiyatlari.
19. Xitoy tili grammatikasining diaxronik tahlili.
20. Xitoy leksikografiyasi.
21. Xitoy tili yozma va og‘zaki nutqidagi tafovutlar.
22. Xitoy tilida bog‘lovchilar va ularning grammatik xususiyatlari.
23. Xitoy tilida ravish.
24. Xitoy tilida reduplikatsiya.
25. Xitoy tilida fe‘l va uning mayllari.
26. Yo‘nalishni ifodalovchi sodda to‘ldiruvchi, uning grammatik xususiyatlari.
27. Xitoycha ismiy so‘zlarni o‘zbek kiril va lotin yozuvida transkriptsiya qilish masalasi.
28. Terminlar - Xitoy tili leksik boyligining bir qismi.
29. Xitoy tilining ikki tarmog‘i – vanyan va bayhua.
30. Xitoy tilida sifatlarning ikkilanishi.

II. TILI O‘RGANILGAN MAMLUKAT ADABIYOTIGA OID MASALALAR

1. Qadimgi Xitoy adabiyotining umumiy tavsifi.
2. Qadimgi Xitoy she‘riyati rivojlanishi.
3. Suy Yuan ijodi. "Chu misralari" she‘riyati.
4. Musiqa mahkamasi (乐府 yuyefu)
5. Xitoy adabiyotiga Buddizm an‘analarining kirib borishi.
6. III-XIII asrlarning epik asarlar va tematik xilma-xilligi.
7. Xan davrida Xitoy adabiyotining rivoji.
8. Shoir Tao Yuanming ijodi, janr xilma-xilligi.
9. Bao Chjao ijodida she‘riyatida peyzaj san‘ati.
10. Tang davridagi adabiy jarayonning umumiy xususiyatlari.
11. Tang she‘riyati rivojlanishining o‘ziga xos xususiyati. Tang shoirlarining ijodi misolida
12. Tang davri novellalarining rivoji. Song davri she‘riyat janrining o‘ziga xosligi: (shi, si, fu janri).
13. "Pingxua" Xitoyda tarixiy roman janring paydo bo‘lishidagi o‘rni.
14. Yuan davrida dramaning paydo bo‘lishi va janrning tarkibiy xususiyatlari.
15. XIV asr ohiri- XVII asr adabiyoti rivojlanishining o‘ziga xos xususiyati
16. XIV-XVII asr roman, povest janrining vujudga kelishi.
17. XVIII asr Xitoy dramaturgiyasi va uning xususiyatlari.
18. XVII – XVIII asrlardagi qisqa hikoyalar: an‘ana va novatorlik.
19. XIX asr oxiri va XX boshlari xitoy adabiyotining rivojlanish boshqichlari.

20. Zamonaviy adabiyot nasrining rivojlanish tendensiyalari. (adiblar Lao She, Mao Dong, Lu Sin, Ba Jin ijodi misolida).
21. Zamonaviy adabiyot she'riyatining rivojlanish tendensiyalari.
22. Zamonaviy Xitoy ayollar adabiyotining rivoji.
23. Chjan Ailing asarlarida Xitoyda yangi ayolning obrazi talqini.
24. XX asr I yarmi zamonaviy bolalar adabiyoti paydo bo'lishi va rivojlanishi.
25. Zamonaviy adabiyot dramaturgiyasining rivojlanish tendensiyalari: yangi drama janrlar.
26. XX asr ikkinchi yarmi xitoy adabiyotining rivojlanish tendensiyalari.
27. Zamonaviy xitoy yozuvchisi Chi Tszyan ijodida "Ona yurtlar adabiyoti"ning o'rni.
28. "Chandiqlar adabiyoti" ning rivoji va badiiy.
29. "Ildizlarni izlash" adabiyotining xususiyatlari.
30. Zamonaviy xitoy adabiyotida Gao Sinjian, Mo Yan ijodining o'rni

III. SHARQ TILIDAN ONA TILIGA TARJIMA (800-1000 b.)

乌兹别克斯坦位于中亚地区，是一个具有悠久历史和丰富文化遗产的国家。自 1991 年独立以来，乌兹别克斯坦不断推进经济改革和社会发展，近年来取得了显著的成就。在政府的积极推动下，国家逐步从传统的资源型经济向多元化和创新型经济转型。

首先，乌兹别克斯坦大力发展基础设施建设，交通、通信和能源网络得到了明显改善。首都塔什干以及撒马尔罕、布哈拉等历史名城，不仅成为旅游热点，也逐渐发展为现代化城市。高速公路、铁路和国际机场的扩建，加强了与周边国家及“一带一路”沿线国家的联系。

其次，乌兹别克斯坦积极吸引外国投资，改进营商环境，推动私营企业发展。政府实施税收优惠政策，简化注册手续，鼓励创新创业，从而使农业、纺织、能源、化工以及信息技术等行业迅速发展。棉花和天然气仍是国家的重要出口产品，但高附加值产业的比重不断提升。

在社会发展方面，乌兹别克斯坦注重教育和医疗体系的改善。政府推动教育现代化，支持高等教育与国际接轨，培养专业人才。同时，医疗设施得到升级，民众生活质量逐渐提高。文化和旅游产业也迅速发展，许多世界文化遗产吸引了大量国际游客。

总的来说，乌兹别克斯坦正处于快速发展和改革开放的关键阶段。通过推动经济多元化、改善民生、扩大国际合作，该国在地区和国际舞台上的影响力不断增强，展现出广阔的发展前景。

ONA TILIDAN SHARQ TILIGA TARJIMA (800-1000 b.)

Xitoy madaniyati dunyodagi eng qadimiy va boy madaniyatlardan biri hisoblanadi. Uning tarixi qariyb besh ming yillik davrni o'z ichiga oladi. Xitoy madaniyati falsafa, adabiyot, san'at, me'morchilik, an'anaviy bayramlar hamda milliy qadriyatlarga boy bo'lib, bugungi kunda ham o'zining betakrorligi va chuqur ma'naviy mazmuni bilan ajralib turadi.

Xitoy falsafasida Konfutsiychilik, Daochilik va Buddizm asosiy o'rin tutadi. Bu ta'limotlar insonning ma'naviy kamoloti, axloqiy pokligi, jamiyatlardagi tinchlik va hamjihatlikni targ'ib qiladi. Ayniqsa, Konfutsiy ta'limoti Xitoy xalqining hayot tarzi, urf-odatlar va davlat boshqaruviga chuqur ta'sir ko'rsatgan.

Xitoy adabiyoti ham nihoyatda boy. "Uch podsholik", "G'arbga sayohat" kabi klassik romanlar nafaqat Xitoyda, balki butun dunyoda mashhur. Xitoy she'riyati ham o'zining nozik tuyg'ulari, falsafiy mazmuni va badiiy go'zalligi bilan ajralib turadi.

Xitoy san'ati o'z ichiga rassomlik, xattotlik, haykaltaroshlik, musiqa va teatrni oladi. Ayniqsa, xattotlik – Xitoy madaniyatining eng muhim san'at turlaridan biri. Pekin teatri esa rang-barang liboslari va betakror sahna ijrosi bilan mashhur.

Xitoy an'anaviy bayramlari oila birligi, totuvlik va minnatdorchilik kabi qadriyatlarni ulug'laydi.

Xitoy taomlari ham dunyoda shuhrat qozongan. Uning oshpazlik san'ati xilma-xilligi, mazaliligi va sog'lomligi bilan ajralib turadi. Pekin o'rdagi, dim-sum, choy marosimi va turli ziravorlardan foydalanish Xitoy oshxonasining o'ziga xosligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Xitoy madaniyati nafaqat Osiyoga, balki butun dunyoga katta ta'sir ko'rsatgan. U o'zining qadimiyligi, ma'naviy chuqurligi va rang-barangligi bilan insoniyat sivilizatsiyasining muhim qismiga aylangan.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarining mutaxassislik fanlaridan yozma ishlar topshiriqlari bo'yicha talabalar bilimini baholash mezonlari

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarini baholash uchun maksimal baho - **100 ball** etib belgilanadi.

Mutaxassislik fanlari bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi biletlarining har birida 4 tadan savol bo'lib, ular quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

I. Birinchi va ikkinchi savollar mutaxassislik fanlariga tegishli bo'ladi. Ularning har biriga yozilgan javoblarni baholash **25 ball** doirasida amalga oshiriladi.

Savol bo'yicha javoblarni baholash quyidagi jihatlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi:

- nazariy va amaliy bog'liqlikda yoritilgan;
- mazmunni yoritishda mustaqil ilmiy mushohada yuritish iqtidori mavjudligi;
- nom va ilmiy atamalarni bilish darajasi;

- keltirilgan faktlarning hozirgi davrdagi jarayonlar, o'zgarishlar bilan o'zaro aloqadorlikda ochib berilganligi, chuqur ilmiy tahlil etilgan hamda xronologik jihatdan to'g'ri yoritilganligi;
- muammoni tizimli mustaqil tahlil qilganligi, o'z fikrini erkin va mustaqil ifoda eta olganligi.

BAHOLASH SHKALASI:

1. Fikr aniq va izchil ifodalangan, barcha savollar mutlaqo to'liq yoritilgan va bunda tegishli ilmiy adabiyotlarga tayanilgan va har tomonlama chuqur asoslangan javoblarga **21.5-25 ballgacha - a'lo** baho qo'yiladi.

2. Savolga nisbatan to'liq javob berilgan, fikr izchil ifodalangan, lekin bunda tegishli ilmiy va uslubiy adabiyotlarga kamroq e'tibor berilgan bo'lsa, **17.6-21.4 ballgacha - yaxshi** baho qo'yiladi.

3. Savolga qisman javob bera olgan va ma'lum darajada ilmiy, o'quv-uslubiy adabiyotlaridan foydalangan bo'lsa, **14-17.5 ballgacha - qoniqarli** baho qo'yiladi.

4. Fikr aniq ifoda etilmagan, savolga qisman bo'lsada to'g'ri javob berilmagan, tegishli ilmiy, o'quv-uslubiy adabiyotlardan mutlaqo foydalanilmagan javoblar uchun **0-13.9 ballgacha - qoniqarsiz** baho qo'yiladi.

5. Uchinchi savol bo'yicha mutaxassislikka oid (ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, badiiy) mavzulardagi va 800-1000 belgi atrofidagi hajmga ega sharq tilidagi matnni ona tiliga tarjima qilindi.

6. To'rtinchi savol bo'yicha mutaxassislikka oid (ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, badiiy) mavzulardagi va 800-1000 belgi atrofidagi hajmga ega ona tilidagi matnni sharq tiliga tarjima qilindi.

Yozma tarjimani baholashda **25 ballik mezon** qo'llanadi. Matn tarjimasi quyidagi mezon asosida baholanadi:

BAHOLASH SHKALASI:

a) matnni to'liq 100% tarjima qilsa	25 ball
b) 90 % tarjima qilsa	22.5 ball
v) 80% tarjima qilsa	20 ball
g) 70% tarjima qilsa	17.5 ball
d) 60% tarjima qilsa	15 ball
e) 50% tarjima qilsa	12.5 ball
j) 50% dan kam tarjima qilsa	0 ball

Tarjima hajmidan kelib chiqib, baholashda oraliq ballar korsatkichlari ham qollanishi mumkin.

Yozma ish natijalari bo'yicha sinov yakunida yig'ilgan ballar jamlanadi va quyidagicha baholanadi:

1. 90 - 100 ballgacha – “a’lo”;
2. 71 - 89 ballgacha – “yaxshi”;
3. 60 – 70 ballgacha – “qoniqarli”;
4. 0 – 59 ballgacha – “qoniqarsiz”

100 баллик ва 5 баллик баҳолаш тизимларининг ўзаро мослиги жадвали

5 baholik shkala	100 ballik shkala	5 baholik shkala	100 ballik shkala	5 baholik shkala	100 ballik shkala
5,00 — 4,96	100	4,30 — 4,26	86	3,60 — 3,56	72
4,95 — 4,91	99	4,25 — 4,21	85	3,55 — 3,51	71
4,90 — 4,86	98	4,20 — 4,16	84	3,50 — 3,46	70
4,85 — 4,81	97	4,15 — 4,11	83	3,45 — 3,41	69
4,80 — 4,76	96	4,10 — 4,06	82	3,40 — 3,36	68
4,75 — 4,71	95	4,05 — 4,01	81	3,35 — 3,31	67
4,70 — 4,66	94	4,00 — 3,96	80	3,30 — 3,26	66
4,65 — 4,61	93	3,95 — 3,91	79	3,25 — 3,21	65
4,60 — 4,56	92	3,90 — 3,86	78	3,20 — 3,16	64
4,55 — 4,51	91	3,85 — 3,81	77	3,15 — 3,11	63
4,50 — 4,46	90	3,80 — 3,76	76	3,10 — 3,06	62
4,45 — 4,41	89	3,75 — 3,71	75	3,05 — 3,01	61
4,40 — 4,36	88	3,70 — 3,66	74	3,00	60
4,35 — 4,31	87	3,65 — 3,61	73	3,0 dan kam	60 dan kam

Adabiyotlar ro'yxati

1. Asosiy adabiyotlar

1. A.A.Karimov. Xitoy tili nazariy grammatikasi. T., Fan va texnologiya. 2021.
2. A.A. Karimov Xitoy tilining asosiy grammatik birliklari. –Toshkent, 2000
3. I.N.Bekmuratov. Xitoyda til vaziyati va siyosati (sotsio lingvistik tahlil). Toshkent - 2010 yil.
4. J.T.Ziyamuhamedov -Xitoy adabiyoti poetikasi. 2023
5. Ш.Комилова Хитой адабиёти (XX аср I ярми). 2019
6. S.A. Nazarova, Z. Z. Artikova, H.BYusupova Amaliy xitoy tili, (2-qism). Fan va texnologiyalar nashriyoti-matbaa uyi. Toshkent. 2009
7. S.A Nosirova, S.AHashimova. 中国历史 (Xitoy tarixi). Toshkent: Extremum press, 2018 yil
8. F.M. Xasanova. Xitoy yozuvi iyeroglifikasi asoslari. 2021
9. L.A Sultanova «Xitoy tili leksikologiyasi» o'quv qo'llanma. 2019 y.
10. Jiang Liping. HSK standart darsligi 5. Matn: O'quv qo'llanma (I va II jildlar jamlangan nashr) /- Toshkent: "Silk Road Publishing", 2024.

2. Qo'shimcha adabiyotlar:

11. Sh.M. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
12. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017.
13. Sh.M. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. – 48 b. (Обеспечение верховенства закона и интересов человека – гарантия развития и благополучия народа)
14. Sh.M. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017.
15. Artikova Z.Z. Xitoy tili (HSK5 grammatikasi va yozuv mashqlari) o'quv qo'llanma. Toshkent, 2022y.
16. 姜丽萍: HSK 标准教程 5 课本.-北京: 北京语言大学出版社,2017.6
17. 姜丽萍: HSK 标准教程 6 课本.-北京: 北京语言大学出版社, 2017. 6